
№4 2026

ISSN-L: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN ILMIY JURNAL




2026

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



№4 2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Ye.E. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva B.S. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova G.N. – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova O.G. – pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Umarova N.Sh. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova N.Z. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdullayeva D.U. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov X.X. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov M.R. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva S.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva M.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev A.N. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva G. M. – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova S.T. – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova M. B. – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Maxmudova D.A. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldashev S.R. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova D.B. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Ye.G. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Джексембаева Г.С. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Jalilov N.A.– pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vahobov A.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalilova R.R. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Sh.U. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Sh.F. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev J.Sh. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova F. X. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР
Ашуров Рамзидин Рамазонович
доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА
Исматуллоев Абдулло Насруллоевич
доктор философии (PhD) по психологическим наукам

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ
Реджеп Узюрек - доктор психологических наук, профессор (Турция)
Блинова Е.Е. - доктор психологических наук, профессор (Россия)
Стоюхина Н.Ю. - кандидат психологических наук, доцент (Россия)
Абдуллаева Б.С. - доктор педагогических наук (DSc), профессор
Ибрагимова Г.Н. - доктор педагогических наук, профессор
Мамуров Б.Б. - доктор педагогических наук, профессор
Филиппова О.Г. - доктор педагогических наук, профессор (Россия)
Мирзаева Ф.О. - доктор педагогических наук (DSc), профессор
Бафаев М.М. - доктор психологических наук (DSc), доцент
Умарова Н.Ш. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Исмоилова Н.З. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Абдуллаева Д.У. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Атабаева Н.Б. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Джабборов Х.Х. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Акрамов М.Р. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Туйчиева С.М. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Гадоева М.И. - доктор филологических наук (DSc), профессор
Расулов З.И. - доктор филологических наук (DSc), профессор
Курбанбоев А.Н. - доктор психологических наук (DSc), доцент
Таниева Г.М. - доктор исторических наук, профессор
Давлатова С.Т. - доктор исторических наук, профессор
Курбанова М.Б. - кандидат исторических наук, профессор
Турдиев Б. - доктор философских наук, профессор
Махмудова Д.А. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Юлдашев С.Р. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Ботирова Д.Б. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Алимова Е.Г. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Джексембаева Г.С. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам (Казахстан)
Жалилов Н.А. - доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Вахобов А.А. - доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Рахматова М.М. - доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Халилова Р.Р. - доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Бобожонов Ш.У. - доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент
Шарипов Ш.Ф. - доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бутаев Ж.Ш. - доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бобожонова Ф.Х. - кандидат исторических наук, доцент

Ответственный редактор
Хайитов Хаётжон Хикмат угли

EDITOR-IN-CHIEF
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences

EDITORIAL BOARD
Rejep Uzyurek - Doctor of Psychological Sciences, Professor (Türkiye)
Blinova Ye.E. - Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyukhina N.Yu. - Candidate of Psychological Sciences, Associate Professor (Russia)
Abdullaeva B.S. - Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Ibragimova G.N. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Mamurov B.B. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Filippova O.G. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Mirzaeva F.O. - Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Bafaev M.M. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor
Umarova N.Sh. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Ismoilova N.Z. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Abdullaeva D.U. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Atabayva N.B. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Jabborov Kh. Kh. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Akramov M.R. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Tuychieva S.M. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Gadoeva M.I. - Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor
Rasulov Z.I. - Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor
Qurbonboev A.N. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor
Tanieva G.M. - Doctor of Historical Sciences, Professor
Davlatova S.T. - Doctor of Historical Sciences, Professor
Kurbonova M.B. - Candidate of Historical Sciences, Professor
Turdiev B. - Doctor of Philosophy Sciences, Professor
Makhmudova D.A. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Yuldashev S.R. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Botirova D.B. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Alimova Ye.G. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Dzheksembayeva G.S. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences (Kazakhstan)
Jalilov N.A. - Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor
Vahobov A.A. - Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor
Raxmatova M.M. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Khalilova R.R. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Bobojonov Sh.U. - Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences, Associate Professor
Sharipov Sh.F. - Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences
Butayev J.Sh. - Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences
Bobojonova F.X. - Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

Managing Editor
Xayitov Xayotjon Xikmat ugli

OILADAGI NIZOLARNI HAL ETISHDA MEDIATORLIK FAOLIYATINING AHAMIYATI

Ibaydullayeva Umida Rustamjonovna
O‘zMU Jizzax filiali “Psixologiya” kafedrasi
dotsenti, ps.f.b.f.d (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada oilaviy munosabatlarda er-xotin o‘rtasida yuzaga keladigan nizolar, ularning psixologik va ijtimoiy sabablari hamda oilaviy ajrimlarga olib keluvchi omillar tahlil qilingan. Oilaviy nizolarning oldini olish va ularni konstruktiv hal etishda mediatorlik faoliyatining psixologik ahamiyati, shuningdek, mediatsiya jarayonida empatiya, samarali muloqot va muzokara mexanizmlarining o‘rni yoritilgan. Mediatsiya shaxslararo munosabatlarda yuzaga keladigan emotsional zo‘riqishni kamaytirish, tomonlar o‘rtasidagi ishonch muhitini tiklash, o‘zaro tushunish va murosaga erishishga ko‘maklashuvchi psixologik-ijtimoiy mexanizm sifatida baholangan. Shuningdek, oilaviy nizolarni bartaraf etishda mediatorlik faoliyatini samarali tashkil etish zarurati hamda uning nizolar profilaktikasi va oilaviy munosabatlarni barqarorlashtirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so‘zlar: mediatsiya, mediator, oilaviy nizo, ajrim, nizo sabablari, ajrim sabablari, empatiya, muloqot, konfliktologiya, kelishuv, psixologik profilaktika, muzokara, shaxslararo munosabatlar.

ЗНАЧЕНИЕ МЕДИАТОРСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РАЗРЕШЕНИИ СЕМЕЙНЫХ КОНФЛИКТОВ

Аннотация. В статье анализируются конфликты, возникающие между супругами в семейных отношениях, их психологические и социальные причины, а также факторы, приводящие к расторжению брака. Раскрывается психологическое значение деятельности медиатора в предупреждении и конструктивном разрешении семейных конфликтов, а также роль эмпатии, эффективной коммуникации и переговорных механизмов в процессе медиации. Медиация рассматривается как социально-психологический механизм, способствующий снижению эмоционального напряжения в межличностных отношениях, восстановлению атмосферы доверия, достижению взаимопонимания и компромисса между сторонами. Кроме того, научно обоснована необходимость эффективной организации медиаторской деятельности при разрешении семейных конфликтов, а также ее значение в профилактике конфликтов и укреплении стабильности семейных отношений.

Ключевые слова: медиация, медиатор, семейный конфликт, развод, причины конфликтов, причины развода, эмпатия, коммуникация, конфликтология, соглашение, психологическая профилактика, переговоры, межличностные отношения.

THE IMPORTANCE OF MEDIATION IN RESOLVING FAMILY CONFLICTS

Abstract. This article analyzes conflicts arising between spouses in family relationships, their psychological and social causes, as well as the factors contributing to marital dissolution. Particular attention is given to the psychological significance of mediation in preventing and constructively resolving family conflicts and to the role of empathy, effective communication, and negotiation mechanisms in the mediation process. Mediation is considered a socio-psychological mechanism that helps reduce emotional tension in interpersonal relationships, restore trust between the parties, promote mutual understanding, and facilitate compromise. Furthermore, the necessity of effectively organizing mediation in resolving family conflicts is scientifically substantiated, with particular emphasis on its role in conflict prevention and the stabilization of family relationships.

Keywords: mediation, mediator, family conflict, divorce, causes of conflict, causes of divorce, empathy, communication, conflictology, agreement, psychological prevention, negotiation, interpersonal relationships.

KIRISH

Hozirgi kunda oilalardagi nizolarning oldini olish va oilaviy munosabatlarni mustahkamlash dolzarb muammolardan biri sanaladi. Oila dunyo miqyosida beqiyos va boqiy ijtimoiy tuzilma ekanligi [1] e'tirof etilishiga qaramay, ko'plab mamlakatlarda oilaviy munosabatlarda er-xotin o'rtasida yuzaga keladigan nizolar sababli oilalarning barbod bo'lish holatlari, shuningdek, oiladagi ruhiy ziddiyatlar tufayli bir qator salbiy oqibatlar kelib chiqayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini ta'kidlash o'rinlidir: "Odamlarimiz bilishi kerak, oila muqaddas biz uchun, oilani saqlab qolmasak, biz o'zligimizni yo'qotamiz" [2]. Darhaqiqat, oila – jamiyatning muhim bo'g'ini sanaladi. Uni muqaddas bilish va asrab-avaylash har bir insonning o'ziga bog'liq. Agar har bir inson o'z oilasining qadriga yetib, oilaviy qadriyatlarni to'g'ri shakllantirsagina, oilalarning barbod bo'lish holatlarining oldini olish mumkin.

MAVZUNG O'RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Oila va oilaviy munosabatlar, ularda yuzaga kelayotgan muammolarga bo'lgan qiziqish uzoq davrlardan buyon jamiyatdagi har bir inson, olim, alloma

hamda donishmandlarning e’tiborida bo‘lib kelgan. Azal-azaldan jamiyatimizning buyuk allomalari, olimlari va donishmandlarining nikoh hamda oila masalalariga bo‘lgan qiziqishi yuqori bo‘lgan. O‘zbek oilalarida er-xotinlar o‘rtasidagi psixologik muhitni sog‘lomlashtirish, oilaviy o‘zaro munosabatlarning turlari, oiladagi shaxslararo munosabatlar, er-xotin o‘rtasida turli sabablar tufayli yuzaga keladigan nizolar va ularning turlari, shuningdek, ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlar masalalari yuzasidan mamlakatimiz psixolog olimlaridan D. Abdullayeva, H. Abdusamatov, F. Akramova, R. Dushanov, K. Ikramova, V. Karimova, X. Karimov, A. Kadirova, N. Lutfullayeva, G. Niyazmetova, Z. Rasulova, N. Salayeva, R. Samarov, N. Sog‘inov, B. Umarov, E. Usmanov, M. Utepbergenov, M. Fayziyeva, G‘. Shoumarov, U. Qodirov, Y. Yakubov va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Mazkur olimlar oilaviy munosabatlar, oilaning turmush tarzi, er-xotin va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlar, shuningdek, qaynona-kelin, ovsinlar, qaynona-kuyov hamda qaynota-kelin o‘rtasida yuzaga keladigan nizo va ziddiyatlar muammolarini izchil o‘rganib kelmoqdalar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jamiyatimizda nizolar va ajrimlarning oldini olishga alohida e’tibor qaratilayotganiga qaramasdan, bugungi kunda oilalarda er-xotin o‘rtasidagi nizolarning yuzaga kelishiga qanday sabab va omillar ko‘proq ta’sir ko‘rsatmoqda? Ajralishlarning asosiy sabablari nimalardan iborat va ularning qaysilari ko‘proq ta’sir ko‘rsatmoqda?

Bugungi kunda er-xotin o‘rtasidagi nizolarga eng ko‘p ta’sir ko‘rsatadigan omillar qatoriga o‘zaro muloqotning yetishmasligi, moliyaviy muammolar, sadoqatsizlik va ishonchning yo‘qligi, oiladagi rol va mas’uliyatlarning noto‘g‘ri taqsimlanishi, qaynona-kelin munosabatlari va qarindoshlarning oilaviy hayotga aralashuvi, o‘zaro kutilmalarning mos kelmasligi, yaqinlik va e’tiborning yetishmasligi, qadriyatlar va turmush tarzidagi farqlar hamda zararli odatlarni kiritish mumkin.

Haqiqatan ham, bugungi kunda oilada er-xotinlarning bir-birini eshitmasligi, his-tuyg‘ularini ochiq ifoda etmasligi, o‘z fikr va kechinmalarini ichida saqlashi, moddiy mablag‘larning yetishmasligi, qarzdorlik, er yoki xotinning o‘z mablag‘larini bir-biridan yashirishi, xiyonat yoki unga nisbatan shubha, rashk, uy-ro‘zg‘or ishlari va bola tarbiyasi bilan bog‘liq mas’uliyatlarning taqsimlanishi yuzasidan tortishuvlar, uchinchi tomonlarning oilaviy ishlarga haddan tashqari aralashuvi, nikohdan oldingi tasavvurlar bilan real oilaviy hayot o‘rtasidagi tafovutlar, hissiy yoki jismoniy yaqinlikning susayishi, e’tiborsizlik, diniy, madaniy va tarbiyaviy qarashlardagi farqlar, shuningdek, ichkilikbozlik va qimorbozlik bilan

bog‘liq zararli odatlar er-xotin o‘rtasida nizolarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Bugungi globallashuv jarayonida oilaviy ajrimlar dunyo miqyosidagi dolzarb ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham oilaviy ajrimlar masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, oilaviy ajrimlarga olib keluvchi asosiy sabab va omillarni aniqlash, ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda ajrimlarning oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi tahlillariga ko‘ra, oilaviy ajrimlarning asosiy sabablari [3] quyidagicha taqsimlangan:

№	Ajralish sabablari	% da
1.	Uchinchi shaxs aralashuvi	15%
2.	Farzandsizlik	12,3%
3.	Uzoq vaqt bir oila bo‘lib yashamaganlik	12,2%
4.	Moliyaviy va moddiy qiyinchiliklar	5,9%
5.	Xiyonat	2,7%
6.	Spirtli ichimlik va giyohvand moddalar iste’moli	2,6%
7.	Ommaviy yoki xorijiy madaniyatning salbiy ta’siri	2,1%
8.	Tazyiq va zo‘ravonlik	1,5%
9.	Boshqa sabablar	26,9%

Boshqa tadqiqotlarda esa fe’l-atvor omili birinchi o‘ringa chiqqan: so‘rovnomada qatnashganlarning 49,7 foizi fe’l-atvorning mos kelmasligini ajrimlarning asosiy omili sifatida qayd etgan [4]. Bizning fikrimizcha, oilalarda ko‘pincha moddiy kamchiliklardan ko‘ra, yoshlarning oilaviy hayotga psixologik tayyorgarligining yetarli emasligi, muloqot madaniyatining pastligi va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarining shakllanmaganligi ham nizo va ajrimlarga sabab bo‘lmoqda. Oilalarda ota-onalar yoshlarni to‘yga moddiy jihatdan tayyorlash, ya’ni uy-joy, mebel va dabdabali marosimlarni tashkil etish bilan band bo‘lib, ularni oilaviy hayotning psixologik qiyinchiliklariga, o‘zaro kelishuvga va mas’uliyatga tayyorlash masalasi ko‘pincha e’tibordan chetda qolmoqda. Bu holat yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichlarda ham yaqqol namoyon bo‘ladi.

Tomonlar o‘rtasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolar turli sabab va omillar ta’sirida shakllanadi. Jumladan:

- o‘zaro tushunmovchilik va axborotning yetishmasligi;
- bir-biriga ishonmaslik yoki shubha;

- emotsional zo‘riqish va stress;
- o‘zini boshqalardan himoya qilish ehtiyoji;
- boshqalar tomonidan tan olinish va qadrlanishga bo‘lgan ehtiyoj;
- muloqotdagi emotsional to‘siqlarning mavjudligi.

Albatta, nizo jarayonida insonlarda turli emotsional holatlar, jumladan, g‘azab, xafagarchilik, xavotir, qo‘rquv, umidsizlik, adolatsizlik hissi, stress va himoyaviy reaksiyalar kuzatiladi. Bunday holatlar muloqot jarayonini qiyinlashtiradi, ratsional qaror qabul qilish imkoniyatini pasaytiradi va natijada nizolarning keskinlashishi hamda kuchayishiga sabab bo‘ladi.

Bugungi kunda jamiyatda shaxslararo, oilaviy hamda guruhlararo munosabatlarda yuzaga kelayotgan nizolar inson faoliyatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi, manfaatlarning turlicha bo‘lishi va kommunikatsiya jarayonlarining tezlashuvi nizolarning ko‘payishiga, ayrim holatlarda esa oilaviy ajrimlarga ham sabab bo‘lmoqda. Bunday nizolarni hal etishda an’anaviy sud tartibi bilan bir qatorda, ularni insonparvar va murosaga asoslangan usullar yordamida bartaraf etishga bo‘lgan ehtiyoj ham ortib bormoqda. Ana shunday usullardan biri jahon amaliyotida keng qo‘llanib kelayotgan mediatsiya hisoblanadi. Mediatsiya nizolashayotgan tomonlarga mustaqil va xolis uchinchi shaxs – mediator ishtirokida o‘zaro maqbul kelishuvga erishishga ko‘maklashuvchi jarayondir. Aynan shunday sabablar ta’sirida yuzaga kelgan nizolarda mediatorning vazifasi faqat taraflarning fikrlarini tinglash emas, balki nizoning psixologik manbalarini aniqlash, emotsional keskinlikni yumshatish va konstruktiv muloqot uchun zarur sharoit yaratishdan ham iborat.

Psixologik nuqtayi nazardan, nizo holatida insonlar qarshi tomonning xatti-harakatlarini salbiy niyat bilan izohlashga moyil bo‘lishi, o‘zidagi ichki zo‘riqishni boshqa tarafga ko‘chirishi, o‘z pozitsiyasini mutlaq to‘g‘ri deb qabul qilishi hamda yuzaga kelgan vaziyatni keskin qarama-qarshilik shaklida baholashi mumkin. Mediator ana shunday vaziyatlarda mavjud psixologik to‘siqlarni aniqlab, taraflarning hissiy holatini barqarorlashtirishga, ularni bir-birini tinglashga tayyorlashga va emotsional bosimni kamaytirishga yordam beradi. Bu jarayonda mediator tomonidan hissiy holatni tan olish, verbal va noverbal signallarni to‘g‘ri talqin qilish, sukutdan o‘rinli foydalanish, aniqlashtiruvchi savollar berish va fikrlarni qayta ifodalash kabi usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2018-yil 12-iyunda qabul qilingan va Senat tomonidan 2018-yil 28-iyunda ma’qullangan bo‘lsa-da, mediatsiyaning amaliy samaradorligi ko‘p jihatdan psixologik omillarga ham bog‘liq ekanligi tobora yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Chunki yuzaga kelayotgan nizolar faqat huquqiy manfaatlar to‘qnashuvi

bilan emas, balki hissiy zo‘riqish, ishonchsizlik, stress, o‘zaro tushunmovchilik, qadrlanmaslik hissi hamda muloqotdagi to‘siqlar bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Jahon amaliyotida mediatsiya instituti AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Singapur, Yaponiya va qator Yevropa davlatlarida keng qo‘llaniladi. Buning asosiy sabablaridan biri mediatsiyaning sudlar yuklamasini kamaytirish, taraflar o‘rtasidagi munosabatlarni imkon qadar saqlab qolish hamda nizolarni tezkor va o‘zaro maqbul tarzda hal etish imkonini berishidir. Ayniqsa, oilaviy munosabatlar, mehnat, fuqarolik va tadbirkorlik munosabatlarida mediatsiyaning psixologik yondashuvlarga asoslangan usullari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa mediatorlik faoliyatini nafaqat huquqiy, balki psixologik jihatdan ham o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Mediatsiya – nizo yoki kelishmovchilikka duch kelgan tomonlarga o‘zaro maqbul kelishuvga erishishda yordam berishga qaratilgan, mustaqil va xolis uchinchi taraf – mediator ishtirokidagi jarayondir. Mediatorlik faoliyatida mediator nizolashayotgan tomonlar o‘rtasida o‘zaro tushunish, ishonch va kelishuvga erishishga qaratilgan maxsus psixologik va kommunikativ jarayonni tashkil etib, ular o‘rtasidagi tushunmovchiliklarni bartaraf etishga ko‘maklashadi. Bunda mediator asosiy e’tiborni tomonlarning tashqi pozitsiyalarigagina emas, balki ularning ichki ehtiyojlari, hissiy kechinmalari, qadriyatlari va motivlariga ham qaratadi.

Mediatsiya jarayonida ishonch va empatiya muhitini shakllantirish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Agar taraflar mediatorga ishonmasa, ular o‘z fikrlarini ochiq bayon qilmasligi, haqiqiy ehtiyojlarini yashirishi mumkin, natijada kelishuvga erishish imkoniyati pasayadi. Empatiya esa taraflarning o‘zini tushunilgan, qadrlangan va hurmat qilingan deb his etishiga xizmat qiladi. Bu holat himoyaviy reaksiyalarni kamaytiradi, emotsional zo‘riqishni yumshatadi va konstruktiv muloqot uchun qulay psixologik muhit yaratadi. Faol tinglash ham mediatorlik faoliyatining eng muhim psixologik usullaridan biri hisoblanadi. Mediator suhbatdoshga to‘liq e’tibor qaratishi, uning nutqini bo‘lmasligi, aytilgan fikrlarni zarur hollarda qayta ifodalashi, aniqlashtiruvchi va ochiq savollar berishi, shuningdek, bildirilgan fikrlarni umumlashtirib borishi lozim. Mediatorning bunday yondashuvi taraflarga o‘z fikrlarini erkin bayon qilish imkonini beradi, noto‘g‘ri tushunishlarni kamaytiradi hamda emotsional bosimning yumshashiga yordam beradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mediatorlik faoliyatining samaradorligi ko‘p jihatdan psixologik omillarga bog‘liq. Jumladan, mediator:

- taraflarning emotsional holatini to‘g‘ri baholashi;

- ishonchli va psixologik jihatdan xavfsiz muloqot muhitini yaratishi;
- empatik munosabatni shakllantirishi;
- nizo ishtirokchilarining yashirin ehtiyoj va manfaatlarini aniqlashi;
- taraflarni konstruktiv qaror qabul qilishga yo‘naltirishi lozim.

Agar mediatorning psixologik tayyorgarligi yetarli bo‘lmasa, u nizoni yumshatish o‘rniga, aksincha, uning yanada keskinlashishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shuning uchun mediatorlarni tayyorlash tizimida psixologik treninglar, nizolarni boshqarish, stress-menejment, verbal va noverbal kommunikatsiya, muzokara olib borish hamda emotsional barqarorlikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, mediatorlik faoliyatida psixologik kompetentlik huquqiy bilimlar bilan bir qatorda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularning o‘zaro uyg‘unligi mediatsiyaning amaliy samaradorligini belgilab beradi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, mediatorlik faoliyatining psixologik jihatlari nizolarni samarali va konstruktiv hal etishda muhim ahamiyatga ega. Mediatsiya jarayonida empatiya, faol tinglash, emotsional intellekt hamda o‘zaro ishonch muhitini shakllantirish asosiy o‘rin tutadi. Er-xotin o‘rtasidagi nizolarni mediatorlik faoliyati orqali konstruktiv tarzda bartaraf etishga erishish oilaviy ziddiyatlarning salbiy oqibatlarini kamaytirish, o‘zaro munosabatlarni tiklash va ajrimlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Mediator nafaqat huquqiy vositachi, balki tomonlar o‘rtasidagi emotsional to‘siqlarni yumshatuvchi, konstruktiv muloqotni qayta shakllantiruvchi va o‘zaro tushunishni ta’minlashga ko‘maklashuvchi mutaxassis sifatida ham faoliyat yuritadi. Shu bois, mediatorlarni tayyorlash jarayonida ularning psixologik bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, konfliktlarni diagnostika qilish, emotsional holatlarni boshqarish, samarali kommunikatsiya hamda muzokara olib borish madaniyatini chuqur o‘rgatishga alohida e’tibor qaratish zarur. Mazkur yo‘nalishdagi chora-tadbirlarning tizimli amalga oshirilishi mediatorlik faoliyatining amaliy samaradorligini oshirish, oilaviy nizolarni konstruktiv hal etish va oilaviy munosabatlar barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-sonli Farmoni. www.lex.uz.

2. Mirziyoyev Sh.M., Xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi nutqi, 2018-yil 7-fevral. https://uza.uz/oz/posts

3. Abduvaliyeva Sabrina Erkin qizi. Nikohga kirishdagi psixologik tayyorgarlik yetishmasligi va ajrashishning ayol, erkak hamda bolalar psixologiyasiga ta’siri. International publication center “Milliy yutuqlar e’tirofi” mukofoti. B.4

4. Kadirova A.T. O‘smirlarda oilaviy nizolar to‘g‘risida ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi. Psixologiya fanlari nomzodi diss. – T.: 2007. – B. 20.

5. Ibaydullayeva U. Oiladagi er va xotin o‘zaro munosabatlari borasida sharq va g‘arb mutafakkirlarining qarashlari. Pedagogik mahorat. Buxoro, 2023.

6. Ibaydullayeva U.R., Tirkasheva M.A. Oilada ajrimlar yuzaga kelishi va unga olib keluvchi sabablar. Zamonaviy ijtimoiy psixologiya: an’analar va istiqbollar. I-xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Jizzax-2023.

7. Axmadov N.R., Roziqova M.F., “Oilaviy ajrimlar ularning sabablari, ajrimlarning oldini olishning psixologik mexanizmlari”, “Ssiense and education” Scientifis journal/ISSN 2181-0842, April 2022/Volume 3 Issue 4, 760-762 betlar.

SUDGA OID PSIXOLOGIK EKSPERTIZANING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI Elov Ziyodullo Sattorovich	6
OILADAGI NIZOLARNI HAL ETISHDA MEDIATORLIK FAOLIYATINING AHAMIYATI Ibaydullayeva Umida Rustamjonovna	14
MUSTAQILLIKNING 35 YILI: ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR VA XALQCHIL-PROFESSIONAL XIZMATNING YANGI BOSQICHI Tursunova Ozoda Abdullayevna	22
ICHKI ISHLAR ORGANLARI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIDA YANGI BOSQICH: TA'LIM SIFATI, INNOVATSION YONDASHUVLAR VA DUAL TA'LIM INTEGRATIV MODELI Shermatova Nazokat Safarovna	28
AXBOROT ISTEMOLI MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI (TALABALAR MISOLIDA) Ramazonov Jahongir Djalolovich	34
O'SPIRINLARDA KIBERBULLINGNING PROFILAKTIKASI VA PSIXOKORREKSION IMKONIYATLARI Ibodova Gulimehr Inoyat qizi	46
GLOBALLASHUVNING SHAXS SHAKLLANISHIGA TA'SIRINING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI Raxmatova Zamira Baxtiyorovna	56
O'SPIRINLIK YOSHI DAVRIDA SUITSIDAL XULQ MUAMMOSINING PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA O'RGANILGANLIK HOLATI Sadilloyev Odiljon Oripovich	63
JAZO MUDDATINI O'TAYOTGAN SHAXSLARGA TA'SIR ETADIGAN IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TA'SIRLAR Manzitov Baxtiyor Tolibovich	72

BIOLOGIYA TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING BILIM VA KOMPETENSIYALARINI BAHOLASHNI PEDAGOGIK KVALIMETRIYA VA ZAMONAVIY PSIXOMETRIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH **Boyxonov Islomjon Abduqaxxor o'g'li**	**79**
TALABALARDA INFORMATSION-ANALITIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL-METODOLOGIK ASOSLARI: TIZIMLI, KOMPETENSIYAVIY VA FAOLIYATLI YONDASHUVLAR **Baydjanov Bekzod Xaitboyevich**	**91**
O'QUVCHILARDA KREATIV KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI **Axmedova Gavhar Faxriddinovna**	**101**
QASHQADARYO VOHASI HUNARMANDCHILIGI BILAN BOG'LIQ QO'SHIQLAR VA ULARNING ANTROPOLOGIK TAHLILI **Davlatova Saodat Tilovberdiyevna**	**109**
YALDO KECHASI ANANAVIY TAQVIM MAROSIMINING ETNOLOGIK TAHLILI **Qurbonova Manzila.,** **Bobojonov Shavkat**	**116**
BUXORO MODDIY MADANIY MEROSINI MUZEYLASHTIRISHDA OBIDALARDAGI ASTRONOMIK BELGILARNING O'RNI **Tuksanova Zilola**	**132**
QORAQALPOQ, TURKMAN VA INGLIZ ERTAKLARIDA OBRAZLI NUTQNING MILLIY MODELLARI: FRAZEOLOGIZM, RANG VA MAISHIY TIMSOLLAR **Jepbarova Sayat Kurbanmiratovna**	**138**
INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI ONIM KOMPONENTLI FRAZEOLOGIZMLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI **Koyshekenova Tatyana Kenesarievna**	**144**
LINGVOSEMIOTIKANING FAN SIFATIDA SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI **Nurmatova Sadbarxon Erkinovna**	**151**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI
AXBOROTLASHTIRISH VA TELEKOMMUNIKASIYALAR SOHASIDA NAZORAT INSPEKSIYASI

ГУВОҲНОМА

№1564147 Фаол

"FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669890

СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
312386344

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
05.05.2026дан - - чексиз

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Тошкент шаҳри, Сирғали тумани, Янги Бунёдобод МФЙ, Сергели 6а мавзеси, 8-уй, 148-хонадон

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги Ахборотлаштириш ва телекоммуникациялар соҳасида назорат инспекцияси

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Гувоҳнома **№1564147**

Faoliyat turi

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Qo'shimcha ma'lumotlar

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Fanlararo ilmiy tadqiqotlar
Оммавий ахборот воситасининг тили	o'zbek, rus va ingliz tili
Оммавий ахборот воситасининг тури	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Республика миқёсида
Viloyat	
Тарқатилиш шакли	Онлайн

License SYSTEM

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.
Ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqiladi. Tahririyat a’zolarining jurnal ruknlariga mos kelmagan, ko‘rsatilgan talablarga mos bo‘lmagan maqolalarni nashr qilmaslik huquqi bor.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” jurnali 05.05.2026-yildan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy litsenziya asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan maqolalarning barchasi “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi.
Jurnalda nashr etilgan materiallar va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’ul.

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
Tahririyat manzili: Toshkent shahar Sergili tumani Yangi Bunyodobod MFY 8-uy
https://fanlararotadqiqotlar.uz/